

KORXONALARING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Muxiddinov Djaxongir Murodulloevich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasining Tinglovchisi

E-mail: jahon.888@mail.ru

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.02.2025

Revised: 16.02.2025

Accepted: 17.02.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:
*moliyaviy
barqarorlik, korxonalar,
iqtisodiy rivojlanish,
moliyaviy resurslar,
baholash
ko'rsatkichlari, kapital
tuzilishi, investitsiyalar,
risklarni boshqarish,
iqtisodiy barqarorlik,
tahlil, prognozlash,
moliyaviy boshqaruv.*

Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar va dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar davrida mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Korxonalar milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlari bo'lganligi sababli, ularning barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Korxona qiymatini oshirishda eng muhim omillardan biri, uning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni saqlashdir. Moliyaviy barqarorlikni baholashda korxonalarining individual xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Bu esa moliyaviy barqarorlikni to'liq baholashda qiyinchiliklar yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni baholashning asosiy ko'rsatkichlari tadqiq etilgan. Maqolada, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga oid takliflar ham ishlab chiqilgan.

KIRISH. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida, ayniqsa, real sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarga bir qator iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlar, shuningdek, qulay

shart-sharoitlar taqdim etilmoqda. Ushbu choralar korxonalarning eksportdagi mavqeini saqlab qolishga yordam beradi hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan resurslarni samarali taqsimlashni qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va o'sish sur'atlari asosan real sektor korxonalarining barqarorligi, jumladan, moliyaviy barqarorligi va ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun, mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik-texnologik jihatdan yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish orqali yuqori samaradorlikka erishish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida, sanoat tarmoqlarining nafaqat barqaror ishlashi, balki tez o'sishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 97,9 ming tani tashkil etgan bo'lib, bu raqam 2021-yilga nisbatan 7,6 mingta ko'paygan. 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 551,1 trln so'mni yoki 5,2 foizga o'sish sur'atini tashkil etgan. Shundan, 197,2 trln so'mlik hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan va bu o'sish sur'ati 111,7 foizga yetgan¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish vazifasi belgilangan². Ushbu maqsadga erishish uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda sanoat korxonalarining uzliksiz moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, moliyaviy barqarorlik nafaqat korxonalarning o'z ichki resurslaridan samarali foydalanishiga, balki tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga ham imkon yaratadi. Bugungi kunda korxonalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ichki va tashqi omillarni samarali boshqarishning zarurligi ortib bormoqda. Shuningdek, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning yanada chuqurroq ilmiy-tadqiqotini amalga oshirish, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy va amaliy yondashuvlar kerak bo'ladi.

¹ https://imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post_1045 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotlar.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sun farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/-5841063?ONDATE2=21.04.2022&action=compare>

Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar va ichki resurslardan foydalanishning yangicha metodologiyalari, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda innovatsion usullarni qo‘llashni talab qilmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning amaliy va nazariy jihatlari tahlil qilinadi va uning mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqiladi.

MATERIAL VA METOD

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashga oid turli yondashuvlar mavjud. Mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda ko‘pchilik tomondan matematik tenglamalar va turli koeffitsiyentlar asosida baholash usullari qo‘llaniladi. Ushbu koeffitsiyentlar moliyaviy barqarorlikni o‘lchash va uning darajasini tahlil qilishda asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Ayni paytda, bu ko‘rsatkichlar korxonalarining moliyaviy holatini, uning resurslardan qanday foydalanganini va iqtisodiy imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

Korxona moliyaviy barqarorligini baholash metodologiyalari turli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, MDHning taniqli iqtisodchi olimi N. P. Lyubushin korxona moliyaviy barqarorligini baholash uchun quyidagi metodikalarning qo‘llanilishini taklif etadi [1]:

An’naviy yondashuv – korxona aktivlari manbalarini va kapital tarkibini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan foydalanish. Bu yondashuvda korxonaning aktiv va passiv strukturalari o‘rganiladi, bu esa moliyaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Resurs yondashuvi – ishlab chiqarish omillaridan hisoblangan korxona resurslaridan foydalanish sifatini baholash. Bunda, resurslarni samarali taqsimlash va ulardan maksimal darajada foydalanish masalasi alohida e’tiborga olinadi.

Resurslarni boshqarish yondashuvi – korxona faoliyati doirasida resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash zarurligini aks ettiruvchi, boshqaruv sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi metod. Bu usulda boshqaruvning samaradorligi, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar Y. A. Dolgix va Y. E. Slepuxinlar moliyaviy barqarorlikni baholash metodikasida turli ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydilar [2]. Ularning fikricha, korxona moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar mutloq (absolyut), nisbiy (nisbiy koeffitsiyentlar), va uyg‘unlashgan jihatlariga bo‘linadi. Bunday yondashuv ko‘proq korxona moliyaviy holatini yanada to‘liq va keng qamrovli tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ko‘p hollarda, yuqoridagi metodlar real amaliy hayotda keng qo‘llaniladi. Biroq, shuni alohida ta’kidlash lozimki, mavjud usullarni qo‘llashda tashqi muhitning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir darajasi kamdan-kam hisobga olinadi. Shu nuqtai nazardan, korxona moliyaviy barqarorligini baholashda tashqi iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi va global bozorlar bilan aloqalarining ta’siri muhim omil bo‘lishi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan B. Hakimov va boshqalar moliyaviy barqarorlikni "Korxonalarining moliyaviy holatining zaruriy darajada barqaror bo‘lishini, pasaymasligini ifodalaydi" deb ta’riflaydi. Ularning fikriga ko‘ra, iqtisodiyotdagи subyektlar moliyaviy barqarorligini ta’minalashda, ularning zaxiralar bilan ta’milanganligi va xarajatlarni qoplashning shakllanganligi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minalashning asosiy jihatni uning o‘z-o‘zini moliyalashtirish qobiliyatidir. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning barqaror rivojlanishiga va raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

I. D. Umarov o‘z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlariga asoslangan yangi modelni taklif etgan. Ushbu model, asosan, iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi moliyaviy muvozanatni saqlashni ko‘zda tutadi. Bunday model yordamida korxonalar o‘zlarining moliyaviy barqarorligini yanada aniqroq va samaraliroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umarovning yondashuvi iqtisodiy risklarni hisobga olgan holda, korxona faoliyatining uzoq muddatli istiqbollarini baholashni osonlashtiradi [3].

R. S. Tursunov o‘zining tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda va iqtisodiy xavfsizlikni oshirishda investitsion faoliyatning o‘rni haqida fikr yuritgan [4]. Uning so‘zlariga ko‘ra, investitsiyalarni jalb qilish jarayonida moliyaviy holatning mustahkamligi, korxonalarining barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Tursunov korxona moliyaviy barqarorligini saqlashda ilg‘or boshqaruv texnikalari va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlagan.

A. T. Sattarov moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda tashkilotlarning moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish zarurligini ta’kidlagan [5]. Uning tadqiqotlari korxona boshqaruvining barcha jihatlarini moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Sattarov innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni taklif qiladi, bu esa korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini yaxshilashga yordam beradi.

NATIJALAR

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy jarayonlari quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi:

Asosiy iqtisodiy xarajatlar va zaxiralarni shakllantirish manbalarining ta’minlanganligi – bu jarayon korxona faoliyatining barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Zaxiralar va xarajatlarning doimiy shakllanishi va ularning yetarli darajada ta’minlanishi korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlab qolishning asosi hisoblanadi.

Korxona moliyaviy manbalarining tarkibi va tuzilmasi – moliyaviy manbalar tarkibi va ularni samarali joylashtirish usullari moliyaviy barqarorlikning ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tiborga olinadi. Mana shunday tarkibdagi o‘zgarishlar korxonaning likvidligi va to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Korxona o‘z mablag‘larining sifati va barqarorligi – o‘z mablag‘larining doimiy ravishda barqarorligini ta’minlash, korxona rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Mablag‘larning sifatli shakllanishi va ularni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Korxona zaxirasining moliyaviy mustahkamligi – zaxiralar moliyaviy mustahkamlikning asosi hisoblanadi, chunki ular korxonaning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga imkon beradi.

Moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko‘rsatkichlari – bu ko‘rsatkichlar moliyaviy barqarorlikning har bir jihatini aniq va o‘lchovli baholash imkoniyatini yaratadi. Masalan, moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti, aktivlarning o‘zgarishi, likvidlik darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar bu tahlilni amalga oshirishda qo‘llaniladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish – bu parametr korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy imkoniyatlarini maksimal darajada ishlatalishni ifodalaydi. Bunda, o‘z resurslarini samarali boshqarish va ulardan maksimal foyda olish jarayonlari muhim o‘rin tutadi.

Korxonaning to‘lov qobiliyati – to‘lov qobiliyati korxonaning qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish qobiliyatini ko‘rsatadi va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi jarayonlar moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ular birgalikda korxonaning moliyaviy holatini kompleks tarzda baholashga imkon yaratadi. Har bir ko‘rsatkich alohida o‘rganilib, moliyaviy barqarorlikning holatini aniqlashda foydalilanadi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish borasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan. MDH iqtisodchi olimlaridan N. L. Donsova, G. V.

Savisskaya, V. P. Zotov, M. I. Bakanov va A. D. Lyubushinlar o‘z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni baholashning turli metodlarini taklif qilganlar. Masalan, G. V. Savisskaya moliyaviy barqarorlikni tashqi va ichki muhit ta’sirida o‘zgarib borayotgan aktiv va passivlar muvozanatini saqlash, shuningdek, investitsion jozibadorlik va to‘lovga qobiliyatni kafolatlash sifatida ta’riflaydi. V. P. Zotov esa ishlab chiqarish salohiyatining holatini va moliyaviy barqarorlikni ta’minalashni korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini baholash sifatida tushunadi.

N. P. Lyubushin moliyaviy barqarorlikni mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholashni taklif etadi. Moliyaviy barqarorlikni aniqlashda materiallar aylanmasi narxining nisbati, mablag‘lar va ularning o‘z va qarz manbalari shakllanishi muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minalashda tashqi muhit omillari, iqtisodiy o‘zgarishlar va global bozorlar bilan aloqalarining ta’siri ham e’tiborga olinishi kerak. Bu omillar ko‘pincha moliyaviy tahlil usullarining samaradorligini oshirish va ularning yanada aniqroq tahlilini amalga oshirishga imkon beradi.



1- rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning klassik usuli³

Yuqoridaq tadqiqotlar va takliflar, korxona moliyaviy barqarorligini ta’minalashga oid zamонавија yondashuvlarning rivojlanishiga xizmat qiladi va amaliyotda qo‘llanilishi, moliyaviy boshqaruvni samarali olib borish uchun zaruriy asos bo‘lib xizmat qiladi.

³ Muallif tomonidan o‘rganilgan manabalarga tayanilgan holda ishlab chiqildi.



2-rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning neoklassik chizmasi.

Ko‘pgina iqtisodchilarining fikricha, korxona moliyaviy barqarorligini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar, shu jumladan likvidlik, rentabellik, aylanma va boshqa muhim me’yoriy qiymatlar barcha tarmoqlar uchun bir xil bo‘lishi kerak. Biroq, amalda har bir sanoatning o‘ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari va transformatsiya jarayonlari bo‘lgani uchun, har bir soha bo‘yicha ko‘rsatkichlar va ularning maqbul qiymatlar farq qilishi zarur. Har bir tarmoq uchun bu ko‘rsatkichlarning chegara qiymatlar va o‘ziga xos parametrlar mavjud bo‘lib, ular zamonaviy iqtisodiyotning voqealigi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish imkoniyatlarini yaratadi.

Sanoat korxonalarini faoliyatining samaradorligi, ko‘plab jihatlarda, o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga, tarmoqdagi transformatsiya jarayonlarining xususiyatlari va tashkil etilgan boshqaruv tuzilmasining samaradorligiga bog‘liqidir. O‘zbekistonning mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, turli tarmoqlar va sohalarda iqtisodiy boshqaruv tizimlarini qayta tashkil etish, ularning faoliyatini transformatsiya qilish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Ushbu transformatsiya jarayonlari, mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishi va barqaror rivojlanishi uchun zaruriy omil sifatida ko‘rildi.

Shunday qilib, soha va tarmoqlar tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish, milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalarini transformatsiyalashni ta’minalash, o‘tish davrini real sektorda minimal talofatlar bilan amalgalashni ta’minaladi. Milliy sanoatning barqaror rivojlanishi va jahon bozoridagi mustahkam o‘rnini bevosita transformatsiya jarayonlari va uning samarali natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda transformatsiya jarayonlarining tezlashuvi, yangi texnologiyalarni keng joriy etish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish orqali kimyo sanoati tarmoqlarida raqobatbardosh kimyo mahsulotlarining ulushi ortib, mamlakatning yalpi ichki mahsulotida sezilarli o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilmoqda.

O‘zbekistonda milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, aynan kimyo sanoatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishni

diversifikatsiya qilish va yangi quvvatlarni ishga tushirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Buning natijasida, milliy iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror o'sish sur'ati yuqori darajaga erishmoqda. Bu jarayonlar o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan va raqobatbardoshlikni oshiruvchi mexanizmlarni rivojlantirishga imkon yaratmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston sanoat korxonalarini davlat tomonidan iqtisodiy va tashkiliy rag'batlantirish siyosati, har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish salohiyati va mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Bu siyosat, shuningdek, korxonalarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Milliy sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va transformatsiya qilish jarayonlari, mamlakat iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishga, ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishishga yordam bermoqda.

Yuqoridagi jarayonlar, bir tomonidan, sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy mexanizm sifatida chiqsa, boshqa tomonidan, ular milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiyalashning samarali yo'nalishlariga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayonlar O'zbekiston sanoatining global bozorga integratsiyasini, uning mustahkam pozitsiyalarini yaratishni ta'minlaydi.

Sanoatning lokomotivi bo'lgan sohalarda transformatsiya jarayonlari va ularni boshqarish, iqtisodiy faoliyat, raqobatbardoshlik, mahsulot tannarxi va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar, sanoat tarmoqlarining samarali rivojlanishiga, ishlab chiqarish salohiyatini baholashga va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berib, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2000-yilda sanoatning ulushi 14,2% bo'lgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 24,3%ga yetdi. 2017–2019-yillarda esa sanoatning ulushi yanada ortib, 2017-yilda 22,2%, 2018-yilda 26,5%, 2019-yilda esa 30,0%ga yetgan. 2021-yilda sanoat mahsulotlari 451,6 trln. so'mni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 8,7%ga oshgan. O'sish sur'atlari, asosan, tog'-kon sanoatida, to'qimachilik, kiyim-kechak, farmatsevtika, kompyuter va optik mahsulotlar ishlab chiqarishda ko'zga tashlangan.

Bu o'sish, sanoat tarmoqlarining modernizatsiyalash va transformatsiya jarayonlarining samarali boshqarilishi orqali amalga oshdi, shu bilan birga, raqobatbardoshlikni oshirishga yordam berdi.


Ko'rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020 -y.	2021 -y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	111869,4	148816,0	235340, 7	322535, 8	368740, 2	456056, 1
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9031,5	15283,8	29087,9	43438,9	33106,9	43872,2
Ishlab chiqaradigan sanoat	91483,0	120686,9	189642, 6	254860, 9	305928, 6	378186, 4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	10522,6	11656,0	14518,5	22014,7	27375,3	30815,5
Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	832,3	1189,3	2091,7	2221,2	2329,3	3182,0

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m⁴

Tahlillarga ko‘ra, 2021-yilda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishi natijasida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) hajmida eng katta ulush xizmatlar sohasiga tegishli bo‘lib, bu ko‘rsatkich 38,6%ni tashkil etgan. Eng kam ulush esa qurilish ishlari sohasida bo‘lib, bu soha YaIM hajmida 6,7%ni tashkil qilgan. Sanoatning ulushi esa 2020-yildagi 27,5%dan 2021-yilda 27,8%ga oshgan. Shunga qaramay, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasidagi ulush 27,1%-dan 26,9%-ga qisqargan. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasidagi rivojlanish va salohiyatni yanada samarali amalga oshirishga qaratilgan islohotlarning natijasidir.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari.

https://stat.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=7751&catid=309&lang=uz-UZ



3-rasm: Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining oʼsish surʼatlari, foizda

Kimyo sanoatining rivojlanishi, oʼzining oʼziga xos va muhim ahamiyatga ega boʼlgan jihat bilan, iqtisodiyotning agrar sektori bilan yaqin aloqada boʼlishi bilan ajralib turadi. Chunki kimyo sanoati, xususan, mineral oʼg’itlar ishlab chiqarish qishloq xoʼjaligi uchun nihoyatda zarur va muhimdir. Shu sababli, kimyo sanoatining oʼsishi va rivojlanishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining ajralmas qismi sifatida, mamlakatning umum davlat strategiyasida ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu, nafaqat qishloq xoʼjaligi, balki umumiyl iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MUNOZARA. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash juda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi iqtisodiy muhitda korxona iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash, nafaqat uning moliyaviy holating barqarorligini, balki uning strategik rivojlanish imkoniyatlarini ham taʼminlaydi. Chunki iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ishonchli asos boʼlib xizmat qiladi. Har qanday iqtisodiy oʼzgarish oʼziga xos xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi, shuning uchun korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda chuqur tahlil va oldindan rejalashtirish zarur.

Hozirgi vaqtida iqtisodiy xavfsizlikni baholashning samarali metodologiyasining yetishmasligi, ushbu sohadagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga qaramay, hozirgi zamon talablariga mos keladigan baholash ko‘rsatkichlari tizimining hali to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun yagona qabul qilingan metodologiya mavjud emas.

Bundan tashqari, korxona moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar ko‘plab ichki va tashqi faktorlar bilan bog‘liqdir. Bularning orasida faoliyat yuritayotgan hududning iqtisodiy salohiyati, hududning shaffoflik darajasi, infratuzilmaning rivojlanish darajasi va davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar va investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bu omillar birgalikda korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Hududning rivojlanishi va unga ajratilayotgan mablag‘lar korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati ortib bormoqda, chunki raqamli texnologiyalar yordamida korxonalar o‘z operatsiyalarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyot, shuningdek, korxonalarning xarajatlarni boshqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashni yanada osonlashtiradi, bu esa o‘z navbatida korxona xavfsizligini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, xalqaro va milliy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, davlatning iqtisodiy siyosati va strategik yo‘nalishlari bilan bog‘liq ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, quyidagi yangi takliflar ham o‘rganilayotgan masalani yanada chuqurlashtirishga yordam beradi:

Korxona moliyaviy barqarorligini baholashda faqat bitta yoki bir necha ko‘rsatkichga emas, balki butun tizimni kompleks ravishda tahlil qilish kerak. Shu maqsadda, investitsiyalarning samaradorligini o‘lchash uchun yangi ko‘rsatkichlar tizimi va indikatorlarni ishlab chiqish zarur.

Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatning qo‘llab-quvvatlashi va xususiy sektor bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish. Shu orqali korxonalarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradigan moliyaviy resurslar ajratilishi mumkin.

Korxonalarning muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun intellektual kapitalni yaratish zarur. Bu uchun ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ilmiy markazlar va

universitetlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirish kerak.

Milliy korxonalar uchun global bozorga kirish imkoniyatlarini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarur. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos keladigan tizimlarni joriy etish hamda xalqaro biznes tajribasini o‘rganish muhim.

Innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish uchun maxsus jamg‘armalar va klaster tizimlarini tashkil etish, shu orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va yangi texnologiyalarni yaratish uchun zarur moliyaviy resurslarni ajratish.

Sanoat korxonalarida ekologik barqarorlikni ta’minalash, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni himoya qilish uchun ekologik innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlash zarur. Bu nafaqat korxona moliyaviy barqarorligini ta’minalashga yordam beradi, balki uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Korxonalarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish va ularning jamiyat oldidagi rolini kengaytirish zarur. Buning uchun korxonalar ijtimoiy loyihalarga, xayriya ishlariga va ekologik dasturlarga sarmoya kiritishlari kerak. Bu nafaqat korxonaning imijini yaxshilaydi, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda ijtimoiy faktorlarni ham inobatga oladi.

Yuqoridagi takliflar sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minalashda yangi imkoniyatlarni yaratadi va ularni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni taqdim etadi. Bu orqali korxonalar o‘z raqobatbardoshligini oshirishi, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Любушин Н. П., Бабичева Н. Э., Галушкина И. А., Козлова Л. В. Анализ методов и моделей оценки финансовой устойчивости организаций // Экономический анализ: теория и практика — 2010 — № 1 (166) — С. 3–11.
2. Долгих Ю. А., Слепухин Ю. Э., Инновационный методический подход к оценке финансовой устойчивости предприятия // Инвестиционно-инновационная политика – 2018. – ноябрь-декабрь. – С. 33–40.
3. Umarov, I. D. *Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlariga asoslangan yangi model.*
4. Tursunov, R. S. *Moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda va iqtisodiy xavfsizlikni oshirishda investitsion faoliyatning o‘rni.*
5. Sattarov, A. T. *Moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda tashkilotlarning moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish zarurligi.*